



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

6. Smith, M.J., & Jones, A.R. Artificial Intelligence in Urban Master Planning. *Journal of Smart Cities*, 2021, 8(2), 101–118.
7. Rasulov I. Qurilish loyihalarida me'yoriy tahlil metodlari. – Toshkent: Monografiya, 2019. – 145 b.
8. International Building Code (2021 Edition). International Code Council, USA.
9. Niyozova D. Shahar landshaftida o'simlik tanlash mezonlari. // "Arxitektura va Dizayn" ilmiy jurnali. – 2023. – №2. – B. 32–39.
10. Lee, Y., & Zhang, L. AI-based Plant Selection for Arid Urban Landscapes. *Landscape and Urban Planning*, 2022, 217, 104242.
11. Kenzhebaev A. Dizayn kodlar va urbanistik estetika. – Toshkent: "Tafakkur", 2021. – 129 b.
12. Müller, R. Urban Visual Harmony through AI. "Computational Urban Design", 2020, 12(4), 233–250.
13. Usmonova N. Yashil maydonlarni avtomatlashtirilgan monitoringi. // "Ekotexnika va Innovatsiyalar". – 2023. – №1. – B. 44–50.
14. Wang, T., & Perez, M. IoT and AI in Urban Landscape Maintenance. *Sustainable Cities and Society*, 2021, 65, 102603.

TURISTIK RESURSLARNING HUDUDIIY TAHLILI VA QO'SHNI DAVLATLAR TAJRIBASI

Kaipbergenov A.E.

Tashkent arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktoranti.

Email: kaipbergenovazat1@gmail.com

Annotatsiya

Turizm o'zining ko'p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning ko'pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug'diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo'l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, kammunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va h.k.

Аннотация

Туризм со своим многогранным составом активно влияет на все сферы жизни общества. Он способствует развитию многих отраслей экономики, включая транспортные сети, связь, дорожное строительство, гостиничный бизнес, предприятия общественного питания, коммунальное хозяйство, бытовое обслуживание, сферу сервиса, торговые сети и т. д.

Annotation

Tourism, with its multifaceted structure, actively influences all spheres of society. It contributes to the development of many sectors of the economy, including transport networks, communications, road construction, hotels, public catering enterprises, utilities, household services, the service sector, trade networks, etc.

Kalit soʻzlar

Turizm, mehmonxonalar, korxonalar, xizmat, jahon, rivojlanish, maskanlar.

Ключевые слова

туризм, гостиницы, предприятия, услуги, мир, развитие, места.

Keywords

tourism, hotels, enterprises, services, world, development, destinations.

Kirish

Turizmni rivojlantirish bir vaqtning oʻzida oʻziga xos dam olish, hordiq chiqarish, koʻngil ochar maskanlar industriasini tashkil etib, oʻz oʻrnida sayyohlarga sifatli xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq bir qator sohalarni qamrab olgandir. Turizm oʻzida jahon iqtisodiyotining murakkab va majmuaviy sohalarini mujassam etganki, bu butun jahon xoʻjaligiga sezilarli taʼsir oʻtkazadi. Aloxida mamlakatlar xoʻjaligiga ham, xududlarga ham u birday tegishli. Ayrim mamlakatlarda xalqaro turizm valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Uning sharofati bilan iqtisodiy taraqqiyot yuqori darajasi va xalq turmush farovonligi qoʻllab –quvvatlanib turiladi [1].

Asosiy qism

Qoraqaplogʻiston Respublikasida tariyxiy turistik qorgonlar koʻp, masalan; Katta Guldursunqalʼa, Tuproqqalʼa, Ayazqalʼa, Jambasqalʼa, Chilpiqqalʼa.

Katta Guldursunqalʼa (mil.av. IV-III asrlar- milodiy III, XII-XIII asrlar) haroba - ilk antik davrda paydo boʻlganiga qaramasdan, Xorazmshohlar sulolasing eng

yorqin yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Guldursun Qoraqalpog‘istonning Beruniy shahridan sharq tomon 20 km va To‘rtko‘l shahridan shimoliy-sharq tomon 26 km masofada joylashgan. Guldursun qadimiy, bo‘shqliq qal’a o‘rniga qurilgan Xorazmning katta qal’a-qo‘rg‘on laridan biridir. Bu qal’a noto‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lib, hajmi 350x230m o‘lchamda, burchaklari yorug‘lik tomon yo‘naltirilgan. Tashqi devorlari katta o‘lchamdagi g‘ishtlari bilan hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Arxeologik topilmalar vaqtida bir qator o‘rta asr va qadimiy davr koshinlari, bronza asboblari va taqinchoqlar, antikvar va o‘rta asrlarga tegishli tangalar topilgan. Topilmalarga muvofiq, so‘nggi yashash manzilgohining sanasi 1220 yil etib belgilangan, ya’ni Muhammad Xorazmshoh hukmronligi hamda qadimgi Xorazmga Mo‘g‘ullarning bosqinchilik qilgan davrlariga to‘g‘ri keladi.



1-rasm. Guldursinqal’a (internet saytdan olingan

<https://karakalpakstan.travel/the-big-guldursun/?lang=uz>)

Xalqaro turizm jahon iqtisodiyatining eng muhim, barqaror va dinamik holda rivojlanib borayotgan sohasiga aylanib bormoqda. BTT ma’lumotlariga ko‘ra, 2006 yilda butun dunyo bo‘yicha turizmning umumiy o‘sish darajasi 4,5% ni tashkil etgan. Xalqaro turistarning kelishi esa 820 mln. Xalqaro turistik xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasi tarkibi ham tubdan o‘zgardi. Jahon turizm bozori borgan sari xilma-

xillashib, aholoning ijtimoiy sohasida turistik mahsulotlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji ortib bormoqda. Turizmning ommaviy uyushgan holdagi shakli kengayib, turistlarga xizmat ko'rsatish va servis sohasi tarkibi ham tubdan o'zgardi [2].

Jahon turizm bozori borgan rivojlanib, aholining ijtimoiy sohasida turistik mahsulotlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji ortib bormoqda. Turizmning ommaviy uyushgan holdagi shakli kengayib, turistlarga xizmat ko'rsatish sifati (transport, joylashtirish, ovqatlantirish, dam olish, hordiq chiqarish va boshqalar) borgan sari o'sib bormoqda. Bir qancha turistik mahsulotlarni taklif etuvchi maxsus turistik tashkilotlar (firmalar) soni ko'payib bormoqda. Jahon tovarlar va xizmatlar eksportida hozirgi paytda turizm ulushiga butun jahon eksportining 8%ga yaqini, jahon xizmatlar savdosining 30%, jahon yalpi mahsulotining 11%, jahon kapital quyilmalarining 9%, jahon iste'mol harajatlarining 11%, butun dunyo soliq tushumlarining 5% to'g'ri keladi. Bundan tashqari, turizm aholining bandligiga anchagina ta'sir ko'rsatmoqda. Turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining uch yetakchi eksport sohalar qatoriga kiradi. U faqatgina neft qazib olish va qayta ishlash hamda avtomobilsozlik sanoatlaridan keyin turadi. Turizm dunyoda ko'pchilik davlatlarida yagona tizim sifatida rivojlanmoqda va mamlakatlar byudjetiga salmoqli daromad keltiradi. Shuningdek juda ko'pchilik turistik agentliklar jismoniy va huquqiy shaxslarga xizmatlar ko'rsatadi. Turizm na faqat eng yirik, balki jahon iqtisodiyotining eng dinamik holatda rivojlanayotgan sektorlaridan biridir.

Xalqaro turizm juda ko'pgina mamlakatlarda to'lov balansiga amal qilishda muhim omil bo'lib sanaladi. So'nggi yillarda turizm dunyoda aholi bandligining muhim generatoriga aylanib bormoqda va jahon infratuzilmasiga juda katta miqdorda sarmoyalarni jalb etmoqda. Bu esa mahalliy aholini ham, tashrif buyuruvchi turistlarning ham turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Turizm sohasida juda ko'p ish o'rinlari turistik korxonalar rivojlanayotgan hududlarda paydo bo'ladi. Bu esa iqtisodiy imkoniyatlarni muvozanatlantirish, qishloq aholisini barcha qulaylikka ega shaharlarga qarab oqishining oldini olishga yordam beradi. Mamlakatlararo xususiyatlarni anglash va ko'ra bilish hamda shaxsiy aloqalarni

oʻrnatish turizm sohasi tufayli shakllanadi. Xalqaro turizm har bir davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, maʼrifiy sohalariga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatadi. Turizm ulkan madaniy va maʼnaviy mazmunga ega boʻlib, hamfikirlikni mustahkamlash, xalqlar oʻrtasida oʻzaro hamkorlikni kuchaytirishda, hududiy va mahalliy majarolarni bartaraf qilishda, barqaror tinchlikni mustahkamlashda katta rol oynaydi.

- turizm shaxsni uning ijtimoiy-gumanitar funksiyasi orqali (tarbiyaviy, taʼlimiy, sogʻlomlashtirish va sport) amalga oshiriladigan rivojlanishi alohida shaklidir;

- turizm dam olishni, boʻsh vaqtni oʻtkazishning ommaviy shaklidir;

- turizm odamlarga vaqtincha doimiy yashash joyida boʻlmagan paytida xizmat koʻrsatish boʻyicha xoʻjalik sohasidir;

- turizm bozor segmenti sifatida isteʼmolchilarga oʻz mahsulotlari va xizmatlarini (marketing nazariyasi nuqtai nazaridan) taklif etish maqsadida anʼanaviy xoʻjalik tarmoqlari (transport, umumiy ovkatlanish, mehmonxona xoʻjaligi, madaniyat, savdo va boshqa.) bilan bozorga chiqadi;

Turistlarni “vujudga keltiruvchi” mintaqa oʻzida turistlar oʻz sayohatini boshlagan uni tashkil qilgan joy sifatida namoyon boʻladi. Mazkur element masalalarini oʻrganishning asosiy omillari shundan iboratki, ularning ijtimoiy iqtisodiy va demografik xususiyatlari, geografik joylashgan yerining turizm talabalarini ragʻbatlantiruvchi sifatlari qarab chiqiladi. Tabiiyki, turizm industriyasida asosiy marketing operatsiyalari xuddi shu yerda amalga oshiriladi. Turistlar «vujudga keltiruvchi» mintaqada doimiy ravishda potensial isteʼmolchilarni sayohatga chorlovchi motivlar (rahbatlantiruvchi) jarayonlari kechadi. Odamlar turli mamlakatlar haqida kitoblar oʻqiydilar, jurnallarni tomosha qiladilar, reklama axborotlarini oʻrganadilar, televizor koʻradilar, tanish-bilishlari, qarindosh-urugʻlari bilan muloqatda boʻladilar va nihoyat maʼlum qarorga keladilar va sayohatga yoʻl oldilar [3].

Turizmga ta'sir etuvchi omillar: tabiiy, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, huquqiy, jismoniy va boshqalar. Tranzit so'zining ma'nosi bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga uchinchi mamlakat tuprog'i orqali pasajjirlar va yuklarni olib o'tish tushuniladi. Turistlar o'z sayohat maqsadi sari yo'l olar ekanlar, bir muncha vaqt (bir necha soatdan bir necha kungacha) tranzit mintaq deb alatuvchi joylarda to'xtashlari mumkin. Bu eng avvalo bir transportdan boshqa transport vositasiga (masalan, samolyotdan avtobusga) o'tib o'tish joyi. Shuning uchun ham transport xizmati bu yerda asosiy rol o'ynaydi. Tranzit mintaqasi funksiyalaridan biri shundan iboratki, turistlarga umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan (restoranlar, kafe va boshq.) xizmat ko'rsatilishidir. Ammo, turistlar bu yerda diqqatga sazovar joylar bo'lsa, ularni tomosha qilish uchun bir necha kun qolishlari ham mumkin. Tranzit mintaqasi (tranzit yo'nalish) turistlarni "vujudga keltiruvchi" va turistik destinatsiya (manzil)lar o'rtasida bog'lovchi bug'in hisoblanadi. Bu tushuncha mazkur sxemaning eng muhim elementlari sanaladi. Chunki tranzit mintaq orqali turli turistik oqimlar o'tishi mumkin. Ammo biroq sayohatning maqsadi – bu turistik destinatsiya mintaqasidir. Destinatsiya tushunchasi, uning mohiyati va xususiyatlariga to'xtalamiz. "Destinatsiya" lotincha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, turar joy (o'rin, manzil, makon) ma'nosini anglatadi. Bu atama XX asrning 90-yillarida turizm sohasida keng qo'llanila boshladi. Xorijiy adabiyotlarda "destinatsiya" tushunchasini aniqlashtirish uchun ikki xil yondoshuv mavjud. Birinchi yondoshuvda destinatsiya ma'lum (prof. Leyper tabricha) geografik chegaraga ega territoriya sifatida talqin etiladi. Boshqa nuqtai nazardan "destinatsiya" - bu turistlar uchun jalb etuvchi geografik territoriya bo'lib hisoblanadi. Ya'ni jalb etuvchi kategoriya birinchi o'ringa chiqadi. U turli turistik guruhlar uchun bir xil bo'lmasligi mumkin. Misol uchun, turistlar turli yoshda, puli, qiziqishi, chegaralangan bir hududda dam olishi (kemping, otel) sayohat maqsadlariga mutlaqo mos kelmasligi mumkin. Birovlarni plyajlar va dengizlar jalb qilsa, boshqalarni esa tarixiy joylar va muzeylar, uchinchi kishilarni sayr-tomosha, faol dam olish va boshqalar rom etadi. Shunday qilib, destinatsiya (boriladigan manzil) sayohatchilarni vaqtincha bo'lishga jalb qiladi. Chunki u, ular

yashaydigan mamlakatda bo'lmagan harakterli xususiyatlarga egadir. Bu joylar turizm industriyasi turistlarni joylashtirish, ovqatlanishini tashkil qilish, sayr – tomosha va dam olish, sayohlik ehtiyoj tovarlari va suvenirlarni chakana savdosini tashkil qilishga mo'ljallangan. Shunga qaramasdan, har qanday joyni destinatsiyaga kiritib, bo'lmaydi. Joy (hudud) destinatsiya deb atalishi uchun quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak [5].

Turizm haqidagi qonunlar odatda kompleks (tarmoqlararo) xarakterga ega va turizm sohasida huquqiy tartibga solishning eng dolzarb masalalarini tartibga soladi, ular quyidagilardan iborat: turizm sohasidagi tushunchalar va ta'riflar; turizm sohasida davlat siyosatining maqsad va vazifalari hamda davlat tartibga solish yo'nalishlari, barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari o'rtasida turizm sohasidagi vakolatlarni ajratish, turizmni davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi ijro etuvchi hokimiyat organlarining nomlanishi, vazifalari va vakolatlari, turistik tashkilotlarning huquqiy maqomi, turizm sohasida fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzish, bajarish va bekor qilish tartibi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, javobgarlik, turistik tashkilotlarning javobgarligini sug'urtalash va boshqa moliyaviy ta'minoti, davlat hokimiyati organlari huzuridagi jamoat tuzilmalarining huquqiy maqomi, turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning umumiy prinsiplari va proteksionistik siyosatni amalga oshirish (turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari, soliq imtiyozlari, xorijiy turistlarni qabul qilish xizmatlarini eksport sifatida belgilash va boshqalar), turizm sohasida tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tashkil etish (davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziyalash, sertifikatlash, standartlashtirish, turistik tashkilotlarni, mehmonxonalarni tasniflash, turistik tashkilotlar va turizm kasblari xodimlari reyestrlari, turizm sohasidagi xodimlarning malakasini tasdiqlash (turistik patent), barqaror turizm rivojlanishining prinsiplari asosida turizm resurslaridan foydalanishning huquqiy rejimi, turizm sohasida moliyaviy nazorat va statistik hisobotning umumiy prinsiplari, turistik rasmiyatchiliklar va turizm xavfsizligi, turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash, davlatning turizm sohasidagi xalqaro-

huquqiy hamkorligi, xavfsiz turizmni rivojlantirish, turizm sohasidagi qonunbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik choralarini belgilash.

Turizm politsiyasi xodimlarining ko'pchiligi chet tillarni bilishadi, maxsus turistik fanlar bo'yicha tayyorgarlik kurslaridan o'tadilar, shuningdek, turizm sohasidagi davlat hokimiyati organlari, turizm sanoati birlashmalari va sayyohlar bilan yaqin hamkorlikda bo'ladilar. Amerika huquqshunos olimlari AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Yangi Zelandiya, Niderlandiya va Skandinaviya tajribasini umumlashtirish asosida turizm sohasida xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqdilar. Ushbu tavsiyalar nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining, balki fuqarolik jamiyati vakillarining (ixtiyoriylar, turizm sanoati tashkilotlari xodimlari va boshqalar) turistlar vaqtincha bo'lib turgan joyda jamoat tartibini saqlashda faol ishtirok etishlarini nazarda tutadi. Shuningdek, AQShning ayrim turistik hududlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash tajribasi ushbu sohadagi jamoat munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus huquqiy hujjatlar mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, Gavayi orollari shtatidagi turistik ma'muriyat 2005–2015 yillarga mo'ljallangan turistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha strategik rejani amalga oshirgan. Hujjat qabul qilinishi asosiy maqsadlari bo'lib: ma'muriy huquqbuzarliklar, jinoyatlar va xavfsizlikka boshqa tahdidlarning oldini olish, sog'liq va turistlar xavfsizligiga bog'liq potensial xavf-xatarlar bo'yicha turistlar, mahalliy aholi va turistik sanoat xodimlarini o'qitish va o'qitish yo'li bilan; turistlarning vaqtincha turar joylarida jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash; aeroportlarda, dengiz portlarida va turistlar shaxsiy xavfsizligi uchun yuqori xavfli bo'lgan boshqa joylarda turistlar va mahalliy aholining shaxsiy xavfsizligi choralarini kuchaytirish; nash'abozlik va boshqa jinoyatlarning oldini olish; turli favqulodda holatlar natijasida, jumladan, jinoyatlar, baxtsiz hodisalar va boshqa xavflar qurboniga aylangan turistlarga yordam berish. Ba'zi mamlakatlarda turizm xavfsizligini davlat tomonidan boshqarish tajribasi, shuningdek, davlat va munitsipalitet hokimiyati turistlar yoki turizm sanoati tashkilotlariga turizm

xavfsizligi bo'yicha tadbirlarni moliyaviy ta'minlash maqsadida moliyaviy yuklamalar (soliklar, yig'imlar) o'rnatmasliklari kerakligini ko'rsatadi.

Xulosa

Xalqaro raqobatning yuqori sharoitida bu kirish turistik oqimlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi va mahalliy budjetga turizmdan tushumlarni kamaytirishi mumkin. Shuning uchun turizm xavfsizligi bo'yicha xarajatlar boshqa manbalardan qidirilishi kerak[8]. Turizm sohasida maxsus iqtisodiy choralardan foydalanishda AQSh tajribasini ham qayd etish mumkin. AQShda xavfsizlikning bu choralari evolyusiyasi AQShga nisbatan dushman yoki do'stona siyosat olib borayotgan chet davlatga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llash tartibini o'rnatuvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish bilan bog'liqdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2016 yil 2 dekabr, PQ-2666-son.
2. "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2021 yil 06 aprel, PF-6199-son.
3. "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Toshkent sh., 2016 yil 2 dekabr, PF-4861-son.
4. "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Toshkent sh., 2019 yil 5 yanvar, PF-5611-son.

5. “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Toshkent sh., 2018 yil 7 fevral, PQ-3514-son.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi №PF-4947 sonli farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo’nalishlari bo’yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi 2017 yil 15 avgustdagi №3-5024 sonli qarori.
9. Қазақ батыры Дәуіт Асауұлы. / Құраст. Н.Ы. Жетпісбай, А.А. Аблаев.— Алматы, 2017. – 240 бет + 16 б. жапс.
10. Карлыбаев М. Медресе в Каракалпакии XIX-начала XX веков. Нөкис: Билим, 2002. – 82 б.
11. Хожаниязов Ғ., Юсупов О. Қарақалпақстандағы мухаддес орынлар. Нөкис: Полиграф, 1994. – 68 б.

ПРОБЛЕМЫ ДЕГРАДАЦИИ И УТРАТЫ ТРАДИЦИОННОЙ СТРУКТУРЫ

Курбанова Барно Алижон кизи

Докторант (PhD), Самаркандский государственный архитектурно-
строительный университет, Узбекистан, Самарканд (<https://orcid.org/0009-0001-6428-1978>)

Рахимов Шахриер Камолович

Магистрант, Самаркандский государственный архитектурно-строительный
университет, Узбекистан, Самарканд

Научный руководитель: Рахимов Камол Джалолович